



UDK 82.1

Gulom ABDULLAYEV,

University of Science and technologies pedagogika fakulteti dekani o'rinbosari

Toshkent davlat ozbek tili va adabiyoti professori, f.f.d. Z.Xolmanova taqrizi ostida

FITRAT'S ACTIVITY TO REFLECT THE MEANING OF TURKIC LEXEMES

Annotation

The article describes Fitrat in reflecting the capabilities of Turkic languages, in particular, the semantic features of Turkic lexemes. It is shown that Fitrat continued the tradition of his ancestors, including Yusuf Khos Hajib, in reflecting the specifics of Turkic languages and features of meaning, skillfully using figurative meanings of words to effectively express reality. The similarities between the works of Yusuf Khos Hajib and Fitrat in the artistic use of some Turkic lexemes are substantiated using examples.

Key words: lexeme, seme, concept, Turkic lexeme, synecdoche, metaphor, internal possibility, artistic skill, tajohilu arif, archaic forms, dialect words, word formation, word meanings, figurative meaning, zoonym.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ФИТРАТА ПО ОТРАЖЕНИЮ ЗНАЧЕНИЯ ТЮРКСКИХ ЛЕКСЕМ

Аннотация

В статье описаны Фитрата в отражении возможностей тюркских языков, в частности, семантических особенностей тюркских лексем. Показано, что Фитрат продолжил традицию своих предков, в том числе Юсуф Хос Хаджиба в отражении специфики тюркских языков и особенностей значения, умело использовать переносные значения слов для эффективного выражения действительности. На примерах обосновано сходство творчеств Юсуфа Хоса Хаджиба и Фитрата в художественном употреблении некоторых тюркских лексем.

Ключевые слова: лексема, сема, концепт, тюркская лексема, синекдоха, метафора, внутренняя возможность, художественное мастерство, таджохилу ариф, архаические формы, диалектные слова, словообразование, значения слов, переносное значение, зооним.

FITRATNING TURKIY LEKSEMALAR MA'NOSINI AKS ETTIRISHDAGI FAOLIYATI

Annotatsiya

Maqolada Fitratning turkiy til imkoniyatlari, xususan, turkiy leksemalarning semantik xususiyatlarini yoritishdagi xizmatlari ko'rsatib berilgan. Turkiy tilning o'ziga xos jihatlari, ma'no xususiyatlarini aks ettirishda ajdodlari, xususan, Yusuf Xos Hojib ana'anasini davom ettirgani, so'zlarning ko'chma ma'nolaridan voqelikni ta'sirchan ifodalashda mahorat bilan foydalangani ko'rsatib berilgan. Ayrim turkiy leksemalarni ko'chma ma'noda qo'llashda Yusuf Xos Hojib va Fitrat ijodidagi o'xshash jihatlari misollar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: leksema, sema, tushuncha, turkiy leksema, sinekdoxa, metafora, ichki imkoniyat, badiiy mahorat, tajohilu orif, arxaik shakllar, sheva so'zlari, so'z yasalishi, so'z ma'nolari, ko'chma ma'no, zoonim.

Kirish. Dunyo adabiyotida mashhur yozuvchilar hayoti va ijodi o'rganilganda iste'dodlarning shakllanishida ustoz ijodkorlarning o'rni alohida ta'kidlanadi. Ko'p hollarda buyuk iste'dodlarning o'zlari ularning faoliyatida qaysi ustozlar muhim o'rin tutgani haqida yozib qoldirganlar. Ba'zi hollarda tanqidchilar, adabiyot nazariyasi mutaxassislari ijodkorlar g'oyasi va iqtidorining shakllanishida qaysi buyuk ijodkorlar yoki jamoat arboblari muhim o'rin tutgani haqida qayd etganlar. Alisher Navoiy o'z ijodida mashhur g'azalnavislar, xamsanavislarning ta'sirini shaxsan e'tirof etgan. G'afur G'ulom, Abdulla Qahhorlar ham ijodlaridagi ta'sir masalalari borasida so'z yuritishgan.

O'zbek adabiyotining buyuk mutafakkirlaridan biri Abdurauf Fitrat ijodida ajdodlari ta'siri har jabhada bo'lishi, tabiiy holdir. Chunki Fitrat ajdodlar merosiga mehr-muhabbat bilan yondashgan. Xususan, "Devonu lug'otit turk" va "Qutadg'u bilig"ni ommalashtirishda faol mehnat qildi. O'zbek adabiyoti tarixini tizimlashtirishni, ma'lum bosqichlardagi manbalarni maqsad qilgan Fitrat eng qadimgi adabiy yodgorliklardan o'z zamonasining ilg'or adabiyotiga qadar kechgan ulkan davrni tartibga soldi. Fitrat turkiyshunoslik ilmida nodir xazina hisoblangan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib (Balasog'uniiy), Adib Ahmad Yugnakiy asarlarining topilishi va nashrga tayyorlanishida faol ishtirok etdi. "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilik"

asarlarini "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "O'zbek adabiyoti namunalari" kabi majmualarida chop ettirdi [2].

Fitrat, xususan, "Qutadg'u bilig"ni topish, ommalashtirish jarayonida uning mazmuni, so'zlar ma'nosiga, tabiiyki, e'tibor qaratgan. Fitrat ijodida eski turkiy til davriga xos so'zlarning qo'llanishi, bir jihatdan, turkiy manbalar matni bilan yaxshi tanish bo'lish bilan izohlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fitrat jadid ma'rifatparvari, jadidchilik harakati yetakchilaridan biridir. Bu davr adabiyoti, ma'rifati o'zbek tili va tilshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Fitratning turkiy til taraqqiyotida alohida o'rin tutgani ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Fitrat tilshunos sifatida e'tirof etilgan [7;8]. Fitrat o'zbek tili taraqqiyoti, ichki imkoniyatlar, so'z yasalishining milliy til taraqqiyotida tutgan o'rni masalasida alohida to'xtalib, maqolalarida turkiy tilning o'ziga xosligini saqlab qolish borasida fikr-mulohazalarini bildirdi. Alisher Navoiy an'anasiga ergashgan holda turkiy til imkoniyatlarini ikki jihatdan asosladi. Morfologiyaga bag'ishlangan "Sarf", sintaksisga bag'ishlangan "Nahv" asarlarini yozib, o'zbek tilining grammatik xususiyatlarini nazariy jihatdan asosladi. Turkiy so'zlarning ma'no qirralari, badiiy imkoniyatlaridan foydalanib, she'riy, nasriy, dramatik janrdagi asarlarini yaratdi. Fitratning o'zbek tili taraqqiyotidagi xizmatlari qayd etilgan. O'zbek morfologiyasi, sintaksisini

takomillashtirishdagi faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan[12]. Fitratning o'zbek tili badiiy mikoniyatlarini yoritishdagi faoliyati, asarlarining til xususiyati o'rganilgan [5]. Fitrat yashagan davr ijtimoiy-madaniy muhiti, til masalalari, o'zbek alifbosi va imlo masalalari bir qator tadqiqotlarda yoritilgan [3;4]. Jadid ma'rifatparvarlarining tilshunoslikka doir qarashlari tahlil qilingan, XX asrning 20 yillarda tutgan o'rni ko'rsatib berilgan. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan tuzilgan lug'atlar, imlo masalalari, darsliklar ilmiy asosda yoritilgan. O'zbek tilshunosligining jadidlar harakati davri tadqiq etilishi zarur bo'lgan bosqich sifatida qayd etilgan. Bu davrga oid til masalalari, jadid ma'rifatparvarlarining tilshunoslikka doir qarashlari yetarlicha o'rganilmaganligi ta'kidlangan. O'zbek tilshunosligining jadidlar davrida alohida tarqiyot bosqichiga ko'tarilgani, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbeklarning yetuk tilshunos sifatida shakllangan qayd etilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Jadid ma'rifatparvarlarining asarlari adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Tadqiqotlarda turkiyalik, germaniyalik olimlarning izlanishlari qayd etilgan. Jadidchilik harakatining o'zbek xalqi madaniy hayotida muhim hodisa bo'lgani, o'zbek tili va o'zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi alohida bosqich hisoblanishi ta'kidlangan. Maqolada shu davr adabiy muhiti, til xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy-metodologik manbalardan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e'lon qilingan o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishga qaratilgan farmonlar, ajdodlar merosini o'rganish va keng targ'ib qilishga bag'ishlangan metodologik manbalar, ilmiy adabiyotlardagi ilmiy-nazariy yondashuv va tahlil usullari tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi.

Maqolada qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Qutadg'u bilig"ning Fitrat ijodiga ta'sirini ayrim so'zlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, arslon zoonimi Yusuf Xos Hojib asarida "mard, jasur, tadbirkor lashkarboshi" ma'nolarini ifodalagan: Kür arslan bolu bersä itqa başı, bu it barça arslan bolur öz tüşi– Ko'rgin, agar arslon it (lar)ga bosh bo'lsa, bu itlar barchasi uning tengida arslon bo'ladi [9,99].

Arslon "mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher" tushunchasini anglatib, ko'chma ma'nolarda "bahodir, zabardast, dovyurak odam haqida (shu jonivorga nisbat beriladi)" tasavvur hosil qiladi[11].

"Qutadg'u bilig"da arslon metaforaga asos bo'lgan: Til arslan turur kör eşikdä yatur, aya ewlög arsiq başıñni yeyür– Til hovlida [ya'ni qafasda] yotgan arslon kabidir, ey qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi [9]. Bunda ham arslon so'zida "kuchlilik", "shiddat" ma'nolari aks etgan. Arslonning eshikda yotishi ham harbiylarga xos "qo'riqchilik", "posbonlik" ma'nolarini ifodalagan. Eşik so'zida sinekdoxa asosida "hovli" ma'nosini ifodalaydi. Bu so'z Farg'ona shevasida faol qo'llanadi [10]. Yusuf Xos Hojib asarida matn mazmunidan tilning og'iz ostonasida yotgan arslonga qiyoslanishi "qo'riqchilik", "bir yerda turg'unlik" semalarini namoyon etgan.

Abdurauf Fitrat sherlarida ham arslon timsoli uchraydi:

Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a
Yurtda qorovul qo'yg'ali arslonmi kerakdir? "Yurt qayg'usi"[2].

Ushbu misralarda keltirilgan "qorovul qo'ymoq" qo'shma fe'li arslon leksemasidagi "mard qo'riqchi", "harbiy" semalarini reallashtirishga xizmat qilgan.

Fitrat ijodida arslon "qo'riqchi", "mamlakat", "saltanat qo'riqchilari" ma'nolarini anglatgan:

"Qayg'urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bo, hech biri yo'olmamishdir. Yolg'iz... Oh yolg'iz tarqalmishdir. (Yurt qayg'usi)". Sochma she'r)[2].

Arslon so'zi o'zbek mumtoz adabiyotida, zamonaviy badiiy matnlarda gender xoslangan so'zdir, ya'ni faqat erkak jinsiga mansub timsolni anglatadi. Arslon antroponimi ham ism sifatida erkaklarga qo'yiladi. Fitratning bir dramasi ham "Arslon" deb nomlanadi.

"Qutadg'ubilig"da dunyo ayol timsolida tasvirlanadi: Bu irsäl yayiy qilqi qurtqa aʼzun, qilinci qiz-ul körsä yaši uzun – Bu jafokor, bevafo, qiliqlari qari kampir [ya'ni makkor, hiylakor] dunyo, boqib ko'rsang, qilmishlari qiz (yosh) yoshi (umri) esa uzundir (QBN, 392; 21a11). Bu yerda dunyo qari kampirga qiyos qilingan. Lekin, qari kampir bo'lsa-da, uning qiliqlari qiz, ya'ni yoshdir [9].

Fitrat ijodida ayol timsoli "vatan" tushunchasini ifodalagan. Shoir ayol siymosini o'ta yupun, xaroba holda tasvirlaydi. Dastlab, go'yo uni tanimagandek, tajohilu orifona usulida so'raydi:

Fitrat "Ey mungli xotun, sen kimsan?"

Ey g'amli ona, nechuk mundan ayrilmaysan?[2].

Keyingi misralarda bu siymoning lirik qahramon siyratini qamrab olgani tasvirlanadi. Bu qamrov ko'z – miya – yurak sarhadlarining ishg'oli bilan aks ettiriladi:

Yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg'u tutunlari ichra yog'dusi qolgan ko'zlaring, u yosh yomg'irlarin nechun to'kadir? Zulm zanjirlari bilan bog'langan qo'llaring nechun haryonga uzatiladir, nima tilaysan?[2].

She'r davomida keladigan misralarda tajohilu orifga badiiy yechim topiladi. Ayol siymosining kimligini shoir anglaydi va xitob qiladi:

Oh...Bildim..bildim.. Angladim!

Sen mening Vatanimsan, vatanimning mungli xayolisan!"[2].

Yusuf Xos Hojib dunyoni ayolga o'xshatadi, Fitrat – vatanni. Bunday muvofiqliklar birinchi navbatda, turkiy til imkoniyatlari bilan izohlansa, ikkinchidan, "Qutadg'u bilig" matnini yaxshi o'zlashtirgan va so'z ma'nolarini teran anglagan ijodkor salohiyati bilan belgilanadi.

Fitrat Yusuf Xos Hojib ana'anasini davom ettirib, turkiy tilni keng miqyosda targ'ib qildi, So'z ma'nolarini teran anglatdi. "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig" matni ommalashtirish jarayonida bir qator so'zlarning ma'nolarini izohlashi ham uning ijodida turkiy so'zlarning, ba'zan arxaik shakllarning keng qo'llanishiga zamin yaratgan.

Fitrat Yusuf Xos Hojib ana'anasini davom ettirib, turkiy so'zlarni keng doirada qo'llashga, ommalashtirishga harakat qilgan. Masalan, yuqorida keltirilgan parchada g'amg'in so'ziga mazmunan hamohang mungli so'zini qo'llagan.

Abdurauf Fitrat – madaniyat xodimi, ma'rifatparvar shoir, adabiy tanqidchi, mohir tilshunos. Shuncha qirralari sabab Fitratni qomusiy olim sifatida e'tirof etamiz. Uning muhim qirralaridan biri turkiy til fidoyisi ekanligi, uning davriy holati, kelajagi uchun qayg'urgan zahmatkash til sohibi sifatida davr maydonida namoyon bo'lganligidir.

Fitrat "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig"dek asarlarning tengsiz ma'naviy-ma'rifiy qiymatini anglab, ularni ommalashtirishga harakat qildi. Bu manbalardagi so'zlarni keng doirada qo'llashga, ma'nolarini keng yoyishga imkon qadar intildi. Bu esa Fitrat asarlarini turkiy so'zlarning teran ma'nosi bilan ta'minladi.

Fitrat "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. ...Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir." deb yozgan edi [2]. Bu tilning boyligi so'zlarining ko'pligida ekanligini ta'kidlab, uning ma'no qirralari Alisher Navoiyning

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida tahlil qilib berilganini ta’kidlaydi. Bu tilning baxtsizligini esa qarovsiz qolgan va e’tiborsiz qoldirilgani bilan izohlaydi.

Xulosa va takliflar. Fitratning turkiy til taqdiri uchun kurashishi, uning boyligi va tengsizligini nazariy jihatdan asoslab bergani, “Tilimiz” maqolasida va bir qator publitsistik chiqishlarida fikrini asoslab bergani o‘zbek tili tarixi uchun muhim qiymatga ega. Qolaversa, bu tilning badiiy go‘zalligini, keng imkoniyatlarini o‘z ijodida namoyon etgani uni mohir tilshunos sifatida tarix maydoniga olib chiqdi.

Fitrat turkiy til fidoyisi sifatida umri davomida, faoliyati, ijodi bilan shu til ravnaqi uchun kurashdi. Bu borada ajdodlari, xususan, Yusuf Xos Hojib an‘analarini davom ettirdi. Milliy til uchun kurashgan fidoyilar zanjirining uzilishiga yo‘l qo‘madi. Bu zanjirning metindek

mustahkamlanishiga, tilni har qanday ta’qiblardan himoya qiluvchi mustahkam qo‘rg‘onga aylanishiga zamin yaratdi.

Fitrat ijodini o‘rganish turkiy til imkoniyatlarini keng yoritishga xizmat qiladi. Fitrat barcha janrdagi asarlarida turkiy tilning, xususan, o‘zbek tilining o‘z qatlamiga oid so‘zlarni qo‘lladi, ayniqsa, she‘riyatida ko‘chma ma‘nodagi ma‘no qirralaridan unumli foydalndi.

Fitrat she‘riyatida o‘zi o‘qib mutolaa qilgan, so‘zlariga izoh bergan mumtoz manbalar tiliga oid umumturkiy so‘zlar ham keng miqyosda qo‘llangan. Bu esa Fitrat she‘riyatining ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan, o‘ziga xosligini ta’minlagan.

Fitrat ijodidagi turkiy so‘zlarning ma‘nosini o‘zlashtirish, keng doirada qo‘llash, ta’lim jarayonida ijodkorning til muhofazasiga doir fikrlarini o‘ragnish va targ‘ib qilish ma’naviy barkamolikka xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni. //https:lex.uz/docs/5058351
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият, 2000. –Б.29
3. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожда Элбекнинг роли. Филол. фан. номз....дисс. –Тошкент, 2002.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
5. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз....дисс. –Тошкент, 2001.
6. Тоғаев Т. Ашуралӣ Зоҳирӣ ва унинг тилшунослик мероси. –Тошкент, 2021.
7. Тўйчибоев Б. Фитрат ва ҳозирги ўзбек адабий тили // анжуман материаллари. –Бухоро, 1992.
8. Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. –Тошкент, 1995.
9. Холмурадова Муштарий. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD)... дисс. –Тошкент, 2019. –Б.99.
10. Ўзбек халқ шевалари луғати.–Тошкент, 1971. –Б.98.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I –680 б.
12. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент,1993.